

ALISHER NAVOIY IJODIDA XUSHMUOMALALIK VA SAMIMIY

MUNOSABAT TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЕЖЛИВОСТИ И ИСКРЕННЕГО ОТНОШЕНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

INTERPRETATION OF POLITENESS AND SINCERE ATTITUDE IN ALISHER NAVOI'S WORK

Raximova

*Gulbaxor,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti dotsenti,*

*Amonov Xasan,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti talabasi*

*Gulbahorrahimov
a17@gmail.com*

1.2. - *O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute, Samarkand, O'zbekiston*

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodida xushmuomalalik va samimiym munosabat, so'zlashish odobi, hilm, tavoze, iltifot va marhamat kabi falsafiy tushunchalar badiiy jihatdan tahlil etilgan. Yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ushbu tushunchalarning ahamiyati to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar. So'zlashish odobi, xushmuomalalik, samimiym munosabat, hilm, tavoze, iltifot, marhamat, falsafiy tushuncha.

Аннотация. В творчестве Алишера Навои художественно анализируются такие философские понятия, как вежливость и искреннее отношение, манера речи, смиренение, скромность, благосклонность и благородство. Рассмотрена важность этих концепций в воспитании молодежи в духе общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова. Манера речи, вежливость, искреннее отношение, смиренение, скромность, благосклонность, благородство, философская концепция.

Annotation. In the works of Alisher Navoi, such philosophical concepts as politeness and sincere attitude, manner of speech, humility, modesty, complaisance and nobility are artistically analyzed. The importance of these concepts in educating young people in the spirit of universal human values is considered.

Key words. Manner of speech, politeness, sincere attitude, humility, modesty, complaisance, nobility, philosophical concept.

Alisher Navoiy g'azallarining ayrim baytlarida turli mavzularga oid pand-nasihatlar uchraydi. Bunday baytlar yoshlar tarbiyasi, ularda insoniylik va oliyanoblik kabi fazilatlarni shaklantirishda katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan ulardan ayrim namunalarni tahlil qilish maqsadga muvofiq ko'rindi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim: Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay. (MAT, 5-tom, 431-bet)

Kamol kasbi qilur bo'lsang, ozmundin o't,

Gar istifoda g'araz o'lsa, imtihondin kech. (MAT, 6-tom, 73-bet)

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy g'azallari tarkibidagi baytlarda inson ma'naviyatini shaklantirishga xizmat qiladigan turli-tuman mavzulardagi pand-nasihatlar ham mavjud bo'lib, ular g'azallar mavzu doirasining naqadar keng ekanligini ham yana bir karra namoyish etadi. Shunday qilib, Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" devoni tarkibiga kiritilgan g'azallar ham mavzu, ham timsol (obraz)lari bilan ko'pqirrali bo'lish bilan birga badiiyat jihatidan ham, shoirning o'zi qayd qilganiday "ranginu ravon" dir.

Alisher Navoiy qit'alarining mavzu doirasi keng bo'lib, ularda hayotdagি hodisa-voqealar, kishilarga munosabat, pand-nasihat, hasbi hol, o'z ijodi va ustozlar

an'anasi haqida so'z yuritilgan. Alisher Navoiy qit'alarga katta e'tibor bergani ham bejiz emas. Shundan bo'lsa kerakki, har bir qit'aga alohida sarsuxan-sarlavha qo'yib, qit'adan kuzatilgan maqsadni ana shu sarlavhalarda mo'jazgina bayon etgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu sarlavhalarning o'zini mustaqil tarzda olganda ularning o'zi hikmat va zarbulmasal xususiyatiga ega. Jumladan: "Saxo so'zikim, saxiyg'a mujibi zabardastlik va soyil ilgiga mujibi zerdastlikdur" (MAT, 6-tom, 514-b.), "Yomon yomonlig'ini qilmasa, yaxshilik'cha bor va bir yaxshilik' qilsa, o'n yaxshi qiliqcha" (MAT, 6-tom, 514-b.), "Laimg'a ta'zim o'z-o'ziga ranji azimdur, balki azobi alim" (MAT, 3-tom, 550-b.), "Dono nuktasini nodon eshitmasa, qoyilg'a ne ziyon, gavhareki bu sochar, ul termasa, munga ne nuqson" (MAT, 5-tom, 493-b.), "Falokatdin ayog'iga kafsh bo'limg'ang'a chun kafsh uchun ayog'i bor, shukr vojibdur" (MAT, 5-tom, 499-b.), "Do'stdinki dushman xo'yi bo'lg'ay, dushman yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay" (MAT, 5-tom, 505-b.) va boshqalar.

Kamol et kasbkim olam uyidin,

Sanga farz o'limg'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomin din nopol chiqmoq. (MAT, 3-tom, 545-b.)

Bu qit'a "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" (T. "O'zbekiston", 2000, 56-bet) kitobiga kiritilib, uning komil insong'oyasini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtirilgan.

Nokas kishi bo'lmasliqda va nojins kishi jinsi bo'lmasliqda:

Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,

Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,

It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. (MAT, 4-tom, 521-b.).

Shunday qilib, Alisher Navoiy boshqa janrlar bilan bir qatorda qit'a yozishga alohida e'tibor berib, unda ham o'zining shoirlig mahoratini namoyish etgan. Bu qit'alarning ko'pi tarixiy hodisa-voqeja va shaxslarga, shoirlar hasbi holi va ijodi bilan bog'liligi jihatidan ham tarixiy hamda badiiy qimmatga egadir.

Alisher Navoiy ijodida xushmuomalalik va samimiy munosabat, so'zlashish odobi, hilm, tavoze, iltifot va marhamat kabi falsafiy tushunchalar o'z aksini topgan:

Buki tavoze'durur oti aning,

Yoki adab keldi sifoti aning.

Garchi xirad vasfidin o'zga demas,

Borchcha ulus sha'nida birdek emas.

Lek bu yo'l qat'ida sharti talab,

Bilki tavoze' bila kelmish adab.

Chunki tavoze'g'a xam o'ldi hilol,

Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Hilm inson vujudining xushmanzara bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillik hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi. Hilm axloqi odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafshi daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat etishadi.

Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig‘a ul kulgu balo kelturub.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e’tiborsiz bo‘ladi. Bu davr bog‘ining xasxashak singari odamlari shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go‘yo og‘ir tabiatli va yomon fe’lli, deb kamsitiladi. Ularning o‘zлари esa, quyundek tuproqni havoga to‘zitadilar va engiltabiatilari bilan boshlarini go‘yo ko‘kka yetkazadilar.

Kulgu uchun kelsa ulus qoshig‘a,
Kulmas ulus yolg‘uz aning boshig‘a.

Masxarakim kulgu uchun boj er,
Bir diram olg‘uncha iki koj er.

Tog‘ jussasini oyoq osti qilmoq – odatlari; dala-dashtlardi zarralarni havoga sovurmoq – bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o‘tdek otashdonni qizdirishdan o‘zga ishni bilmaydi. El – garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog‘ qoyalari kamariga qanday ta’sir qila oladi? o‘t tog‘ etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi? El, agar ko‘kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog‘ agar tuproqqa botsa ham sal obatlidir. Elning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho‘g‘ kabi qizil la’l bor.

Yana bukim, yaxshn-yomon dema so‘z,
El yomonu yaxshisig‘a solma ko‘z.

Yana bukim ranj etar, gar taab,
Asra yomon-yaxshig‘a sharti adab.

Kimki ko‘ngilni qattiq so‘z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngiida til nayzasining jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas.

Agar bir ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so‘z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so‘z – vahshiyarlarni ulfatga aylantiradi; sehrgar – ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi.

“Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”. Tili yomon odam – xalq ko’nglini jarohatlaydi, o’z boshiga ham ofat etkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog‘i – eshakning bemahal hangramog‘i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do’stona so‘z aytadi; ko’ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am – uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkonи bor, shuning uchun ham aytadilarki; “nafasning joni bor...”

Kimga adab kulguga ochmas og‘iz,
Lek hayo abri emas qatrasiz.

Qahqahakim hazl aning yoridur,
Qurbaqa savti bila raftoridur.

Navoiy nazdida o‘zi xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi. Baxt bag‘ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so‘zga erk bergen odam – beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi; til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a’zolardir. Bo‘stonda – gulsafsar, gulg‘uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Har kishikim hindu o‘lur hazl aro,
Yuzini qilmoq kerak avval qaro.

Harza erur chunki musha’bid so‘zi,
O‘z tilini ko‘rki kesar ham o‘zi.

Odam – tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir. Til shirinligi – ko’ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa – foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko‘pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo‘ladi. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam – halvofurush kabi sevimlidir.

Har kimningki so‘zi – yolg‘on,
Yolg‘onligi bilingach, uyatga qolq‘on.

Yolg‘onni chindek gapiruvchi so‘z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg‘on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg‘onchi – uyquda alahlovchi. Yolg‘on gapiruvchi g‘aflatdadir; so‘zning bir-biridan farqi ko‘pdir, ammo yolg‘ondan yomonroq turi yo‘qdir. Yolg‘on gapirish bilan o‘z vaqtini o‘tkazuvchi odam, bu qilig‘i yomon tuyulish o‘rniga, kishilami aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg‘onchi o‘z gapiga go‘llik bilan quloq soluvchini topsa, ularga yolg‘onni chinga o‘tkazsa, murodiga etgan bo‘ladi. Yolg‘onchi – haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning beor yuzi yomonlikka o‘girilgan bo‘ladi; bunday nahsga botgan odam qutlug‘uydan nari bo‘lg‘ay.

Ko‘ngil xazinasining qulfi – til.
U xazinaning kalitini – so‘z bil.

Ko‘p so‘zlovchi – zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi – aqldan ozgan. Ayb izlovchi – aybli; kishi aybini gapiruvchi – o‘ziga yomonlik sog‘inuvchi. To‘g‘rilik bilan qarovchi – pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko‘rvuchi – to‘g‘ri nazarli.

Kimning miyasida illat bo'lsa – so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi yoqimli va xatosiz bo'ladi. So'zi hisobsiz – o'zi hisobsiz. So'zida parishonlik – o'zida pushaymonlik. Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmagan bo'lsa – unga chinlik bezagi etarlidir! Aqli odam yolg'on gapirmas; ammo, barcha rost gapni aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'ilay – nogirondir; ammo, bunga u aybdor emasdир... Birovni nohaq hijolatga solmoq – o'z nodonligini izhor qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so'zdan ko'ra zarurat yuzasidan – o'rni bilan gapirilgan yolg'on yaxshiroqdir.

"Hayratul-abror"ning axloq, odob, tarbiya masalalariga bag'ishlangan bo'limlarida ham davrning muhim ijtimoiy masalalari bilan bir qatorda shoirning yuksak guumanistik qarashlari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, shoirning axloqiyta'limiy fikrlari diqqatga sazovordir. Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun - kunungga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Kattalarga hurmat va e'tibor, ota-onalar qadr-qimmati, insonga mehribonlik kabi fazilatlar asarning bir necha o'rinalarda takrorlanadi. Shoir ota-onani kecha va kunduzni yorituvchi quyosh-oyma o'xshatadi.

Topsang shah xizmatig'a intisob,
To'rt ish etgil o'zungga irtikob:

Senga shoh xizmatini qilish nasib bo'lsa, to'rtta ishni o'zingga saylab ol; oldindan niyatingni uning niyati bilan rostla, boshqa niyatlarni ko'nglingdan chiqar; yana bir, xizmat qilishning vaqtini bil, xizmat qil, lekin qilmagandek tur. Yana biri, yaxshiyomon so'z og'zingdan chiqmasin; odamlarning yaxshi-yomoniga ham qarama (gapini e'tiborga olma). Yana biri, bu xizmatdan qiyalsang ham, azob cheksang ham, odob shartiga ko'ra, hamma yaxshi-yomonga chida. Navoiy ushbu nasihatlarni yozganda Sharq didaktikasidagi an'anaviy fikr-mulohazalarga emas, birinchi navbatda o'z hayotiy tajribalariga asoslangan edi.

Xullas, shoirning odamiylik, insoniylik haqidagi fikrlari uning purhikmat misralarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Navoiy asarlarida kishilarni hayotning qadriga etishga chaqrar ekan, o'tib ketgan ishlarga ko'p qayg'urmaslik, bo'limgan ishni oldindan gapirmaslik kerak, deydi. Inson o'zi uchun yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy ne'matlardan, aql-idrok bilan foydalanishi, o'ynab-kulishi lozim. Chunki, tabiat go'zalliklarining hammasi inson uchun yaratilgan. Inson shularning shukronasini qilib yashomag'i, davru davron surmog'i lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. –T.: "Fan", -1987-1996.
2. Alisher Navoiy. MAT. 10 tomlik. –T.: "Fan", -2015-2017.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.T.1. –T.: "Fan", 1983.-654
4. Fakhriddin, S., Abdumurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. *Journal of Advanced Zoology*, 44.

5. Rahimova, G., & Sh, F. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM VA TARBIYA. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 4(1), 60-63.
6. Rahimova, G., & Allayorova, N. (2020). Alisher navoi wisdom is a source of ethics. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 393-396.
7. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 522-524.
8. Otayarova U. (2023). “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA SAXOVAT MASALASI.
Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 7-11.